ISSN 3060-5091 (Online)
Farg‘ona metodika maktabi – Ферганская методическая школа – Fergana methodical school
2026-yil 6-son.

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.24245630

Boshlang‘ich ta’limda o‘qib tushunish ko‘nikmasini shakllantirish modeli

Ernazarova Manzura Saparboyevna –
Navoiy davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori (DSc)
E-mail: ernazarovamanzura525@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0003-1819-8393

Sharopova Dilnoza Asqadovna –
Navoiy shahar 7-umumta’lim maktabi o‘qituvchisi,
E-mail: sharopovadilnoza1987@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0009-9155-9873

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qib tushunish ko‘nikmasining shakllantirish modeli – uning elementlari, har biri nima uchun muhimligi va ularni shakllantirish usullari haqida tahliliy mulohazalar beriladi. Shuningdek, nazariy model va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar misollar bilan keltiriladi. Maqola o‘qituvchilar, metodistlar va bosqichli ta’lim sohasidagi tadqiqotchilar uchun metodik qo‘llanma bo‘lishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *o‘qib tushunish, model, boshlang‘ich ta’lim,metod, matn, blok.*

Социально-педагогическая и психологическая сущность понятий предвидения и прогнозирования

Аннотация. *В статье представлен аналитический обзор модели развития навыков понимания прочитанного у учащихся начальной школы; рассматриваются ее структурные элементы, значимость каждого из них, а также методы их развития. Теоретическая модель дополняется примерами из современных научных исследований. Статья может служить методическим пособием для педагогов, специалистов по разработке учебных программ и исследователей в области начального образования.*

Ключевые слова: *понимание прочитанного, модель, начальное образование, метод, текст, блок.*

Social, pedagogical and psychological essence of the concepts of foresight and forecasting

Annotation. *This article presents an analytical discussion on a model for*

developing reading comprehension skills in primary school students, covering its constituent elements, the significance of each, and methods for their development. It also incorporates the theoretical model alongside examples drawn from contemporary scientific research. The article may serve as a methodological guide for teachers, curriculum specialists, and researchers in the field of primary education.

Keywords: *reading comprehension, model, primary education, method, text, block.*

KIRISH

Boshlang'ich ta'limda o'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirish modeli o'quvchilarning matnni to'g'ri, ravon va ongli o'qishi, uning mazmunini tushunishi, asosiy fikrni aniqlashi, muhim axborotlarni ajratishi, voqea-hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni anglash va o'qilgan matn asosida mustaqil xulosa chiqarishiga yo'naltiriladi. Mazkur model o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi.

Modelning dastlabki bosqichida o'quvchini matnni o'qishga tayyorlash, mavzu yuzasidan suhbat tashkil etish, rasmlar va savollar asosida matn mazmunini taxmin qilish hamda yangi so'zlarning ma'nosini tushuntirish ishlari olib boriladi. Keyingi bosqichda o'quvchi matnni mustaqil yoki o'qituvchi yordamida o'qib, uning umumiy mazmunini anglaydi. Shundan so'ng matn ustida savol-javob, asosiy fikrni aniqlash, voqealar ketma-ketligini belgilash, qahramonlarga tavsif berish, sabab va oqibatlarni aniqlash kabi topshiriqlar bajariladi.


ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'qish tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda badiiy, ilmiy-ommabop va informatsion matnlardan foydalanish, muammoli savollar berish, klaster, INSERT, "Aqliy hujum", "Qalin va ingichka savollar" kabi metodlarni qo'llash samarali hisoblanadi. O'quvchilarga matndan aniq ma'lumotni topish bilan birga, yashirin mazmunni anglash, fikrni taqqoslash, baholash va o'z munosabatini bildirishga qaratilgan topshiriqlar beriladi [4:30]. Modelning yakuniy bosqichida o'quvchining matnni qay darajada tushungani baholanadi. Bunda matn mazmunini qayta hikoya qilish, savollarga javob berish, asosiy fikrni aniqlash, xulosa chiqarish va o'z fikrini dalillar asosida ifodalash mezonlaridan foydalaniladi. Natijada o'quvchilarda mustaqil, ongli, mazmunli va funksional o'qish tushunish ko'nikmasi shakllanadi. Boshlang'ich ta'lim maktablarida ona tilini o'qitish samarali bo'lishiga erishish uchun amaldagi o'quv materiallarini bu boradagi muammolarni inobatga olgan holda takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Muhimi shuki, o'quvchida, avvalo, o'quv soati uchun ajratilgan har bir daqiqadan, darsliklarda berilayotgan har bir ma'lumotdan unumli foydalanish ko'nikma hamda malakasini shakllantirish va rivojlantirish talab etiladi. Bu borada ona tili ta'limida o'quv topshiriqlardan samarali foydalanish, mashq va topshiriqlarga munosabatni ham tahliliy o'rganish lozim. Jumladan, I.Davronovning algoritmik mashqlar haqidagi fikr-mulohazalari bu boradagi yangicha yondashuvlardan biridir. Biroq ona tili o'qitishda shunday mavzular bo'ladiki, ularning ta'limida didaktik o'yinlardan ko'ra an'anaviy amaliy ishlar orqali kerakli natijaga erishish mumkin bo'ladi.[5:44]. Ta'kidlash kerakki, o'qib savodxonligi, o'qib tushunish ko'nikmalarni rivojlantirishga va, aksincha, nutqiy ko'nikma va malakalarning o'qish savodxonligini rivojlantirishga ta'siri bo'lishi tabiiy. Fan-texnika qanchalik shiddat bilan rivojlanmasin, zamon-u zaminlar o'zgarmasin, baribir insoniyat uchun yozma nutq masalasi hech qachon o'z mohiyatini yo'qotmaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'quvchilar o'z ona tili imkoniyatlaridan mahorat bilan samarali foydalansalar, o'z fikrlarini ta'sirchan, tushunarli bayon qila olsalar, ajdodlardan qolgan boy ilmiy, badiiy merosni chuqur anglash darajasida o'z tilini bilsalar, ona tili ta'limi o'z maqsadiga erishgan

bo'ladi**.** Buning uchun ona tili darslarida foydalaniladigan o'quv materiallari nihoyatda puxta ishlanishi, ko'nikmalarni kompleks tarzda shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Bir paytning o'zida ham matnni o'qib tushunish, ham imlo, ham so'z boyligini oshirish, qolaversa, mustaqil fikrlashga yo'naltirishga sharoit yaratish zarurati takrorlash jarayonini taqozo etadi, bu esa o'qish savodxonligi mahoratini oshiradi.[5:44] Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ona tili darslari orqali o'qish savodxonligini oshirish, o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirish modeli quyidagicha:



1-rasm. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ona tili darslari orqali o'qish savodxonligini oshirish, o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirish modeli

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini oshirish va o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirish modeli o'quvchilarning matnni ongli o'qishi, mazmunini tushunishi, asosiy va ikkinchi darajali ma'lumotlarni farqlashi, xulosa chiqarishi, matn mazmunini tahlil qilishi, baholashi hamda o'z fikrini asoslab bera olishiga yo'naltirilgan pedagogik jarayonni ifodalaydi. Mazkur model ona tili darslarining mazmuni, maqsadi, metodlari, vositalari va natijalarini o'zaro uzviy bog'lash asosida tashkil etiladi.[2:21]

Modelni quyidagi tarkibiy qismlar asosida ifodalash mumkin:

MAQSADLI BLOK → MAZMUNIY BLOK → JARAYONLI BLOK → BAHOLOVCHI BLOK → NATIJAVIY BLOK

1-jadval.

MODELNING TARKIBIY QISMLARI

Model komponenti	Mazmuni	Asosiy vazifa
Maqsadli blok	O'quvchilarning o'qish savodxonligi va o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirish	Ta'lim maqsadini belgilash
Mazmuniy blok	Badiiy, axborotiy va o'quv matnlari bilan ishlash	O'quv materialini tanlash
Jarayonli blok	O'qishdan oldingi, o'qish jarayonidagi va o'qishdan keyingi faoliyat	O'qib tushunishni bosqichma-bosqich shakllantirish
Metodik blok	Savol-javob, "B-B-B", klaster, INSERT, bashorat qilish, muammoli vaziyat, guruhli va juftlikdagi ishlar	O'quvchini faol fikrlashga jalb etish
Baholovchi blok	Diagnostik, joriy va yakuniy baholash	O'quvchining rivojlanish darajasini aniqlash
Natijaviy blok	Ma'lumotni topish, xulosa chiqarish, tahlil qilish, baholash va mustaqil fikr bildirish	Kutilgan ta'limiy natijaga erishish

Modelning maqsadli bloki

Modelning asosiy maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini oshirish hamda matnni ongli va mazmunli o'qish ko'nikmasini shakllantirishdan iborat. Bunda o'quvchi matnni shunchaki o'qib beruvchi emas, balki uni tushunadigan, savol qo'yadigan, ma'lumotni izlaydigan, tahlil qiladigan va o'z fikrini asoslaydigan faol o'quvchi sifatida shakllantiriladi.

Mazmuniy blok. Mazmuniy blokda o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lgan turli mazmundagi matnlardan foydalanish nazarda tutiladi. Badiiy hikoyalar, ertaklar, tabiat va hayvonot olamiga oid axborotiy matnlar, kundalik hayotga tegishli matnlar hamda qisqa ilmiy-ommabop materiallar o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Matnlar tanlashda ularning mazmuni, hajmi, tili, murakkablik darajasi va o'quvchilarning hayotiy tajribasiga mosligiga e'tibor beriladi.

Jarayonli blok. Jarayonli blok modelning asosiy qismlaridan biri bo'lib, o'qib tushunish jarayonini uch bosqichda tashkil etishni nazarda tutadi:

1. O'qishdan oldingi faoliyat. Bu bosqichda o'quvchining mavzu bo'yicha mavjud bilimlari faollashtiriladi. Sarlavha, rasm yoki kalit so'zlar asosida matn mazmunini taxmin qilish, savollar tuzish va matn yuzasidan dastlabki fikrlarni bildirish topshiriqlari bajariladi.

2. O'qish jarayonidagi faoliyat. O'quvchilar matnni o'qish davomida asosiy ma'lumotlarni ajratadi, muhim fikrlarni belgilaydi, notanish so'zlarning ma'nosini aniqlaydi,

voqealar o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini topadi va savollarga matndan dalil keltirib javob beradi.

3. O‘qishdan keyingi faoliyat. Bu bosqichda matnning asosiy g‘oyasi aniqlanadi, o‘quvchi xulosa chiqaradi, qahramonlarning harakatlarini baholaydi, matn mazmuniga munosabat bildiradi va o‘z fikrini asoslaydi.

Metodik blok. O‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishda metod va topshiriqlar tizimi alohida ahamiyatga ega. Darslarda reproduktiv topshiriqlar bilan bir qatorda o‘quvchini mustaqil fikrlashga undaydigan tahliliy, muammoli va ijodiy topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Masalan, o‘qituvchi:

“Matnda nima haqida so‘z yuritilgan?”;

“Qahramon nima uchun bunday ish qildi?”;

“Matndan javobingizni tasdiqlovchi dalil toping”;

“Agar voqea boshqacha kechganida nima bo‘lardi?”;

“Siz qahramonning o‘rnida bo‘lganingizda nima qilardingiz?”

kabi savollar orqali o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtiradi.

Baholovchi blok. Baholash jarayonida o‘quvchining faqat matnni qayta aytib berishi emas, balki uni qay darajada tushungani ham aniqlanadi. Bunda o‘quvchining matndan aniq ma’lumot topishi, xulosa chiqarishi, asosiy g‘oyani aniqlashi, ma’lumotlarni bog‘lashi, matnni baholashi va o‘z fikrini dalil bilan asoslay olishi mezon sifatida olinadi.

Natijaviy blok. Modelni amalga oshirish natijasida o‘quvchilarda quyidagi ko‘nikmalar shakllanishi kutiladi:

matnni ongli o‘qish → mazmunni tushunish → ma’lumotni topish → ma’lumotlarni bog‘lash → xulosa chiqarish → tahlil qilish → baholash → mustaqil fikr bildirish.

Natijada o‘quvchi matn bilan mustaqil ishlay oladigan, o‘qigan ma’lumotini hayotiy vaziyatlar bilan bog‘laydigan, savol bera oladigan va o‘z fikrini dalillar asosida ifodalaydigan faol kitobxonga aylanadi.

Shunday qilib, mazkur modelning o‘ziga xos jihati maqsad, mazmun, metod, jarayon, baholash va natijaning yagona tizimda tashkil etilishi bilan belgilanadi. Modelda o‘quvchi ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida qaraladi. O‘qituvchi esa tayyor bilim beruvchi emas, balki o‘quvchini matnni anglash, savol berish, fikrlash, dalillash va xulosa chiqarishga yo‘naltiruvchi tashkilotchi vazifasini bajaradi. Shu asosda ona tili darslarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini muntazam va bosqichma-bosqich rivojlantirish o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

O‘quvchi o‘qish savodxonligi malakasining shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratuvchi ona tili mashg‘ulotlarida savollardan foydalanish, qolgan o‘rinlarda esa topshiriqlar asosida o‘qitish, fikrimizcha, kutilgan natijani beradi. Shu o‘rinda bir muhim yondashuv haqida to‘xtalish o‘rinli. Ona tili ta’limiga joriy qilinayotgan zamonaviy o‘qitish metodikasida, asosan, publitsistik matnlar, ilmiy matnlarga urg‘u berilmoqda, bu ham ijobiy holat, biroq til va adabiyot yondosh fanlar bo‘lgani holda ona tili ta’limi badiiy matn mazmunini anglashga o‘rgatishi zarur. Shu ma’noda, biz o‘z tadqiqotimizda badiiy matnlar ustida ishlashga ko‘proq e’tibor qaratdik. Matn tanlash masalasi ham mualliflardan, tadqiqotchilardan katta mas’uliyat talab qiladi. Ona tili darslariga istalgan matnni tahlil materiali sifatida keltirish samarali bo‘lavermaydi.

O‘qish savodxonligini rivojlantirish uchun ham maxsus matnlar tanlanadi. O‘zbek adabiyotidagi ayrim hikoya, esse va boshqa kichik hajmli asarlarni, katta hajmli asarlarning zarur qismlarini tanlab olishda o‘quvchining fikrlash ko‘nikmasini oshiradigan, didaktik ahamiyatga ega, mulohazaga chorlovchi matnlarni tanlash zarur. Masalan, rivoyat va

hikoyatlar bizningcha, shunday xususiyatga ega va uni o‘qish savodxonligini rivojlantirishda faydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining ona tili fanidan Davlat ta’lim standarti.2020.
2. Ўзбек мактабларида она тили ўқитиш концепцияси. - Тошкент: ЎзПФИТИ, 1993. - 21 б.
3. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни. - Т.: , Ўзбекистон,23- с 4.
4. Абдулаҳатова Р., Юсупова Т., Дўсанов К. Тил таълимида узвийлик ва узлуксизлик. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – 30 б.сентябрь , 2020.
5. Давронов И. Алгоритмик машқ ва унинг хусусияти. Филология ва усулиёт масалалари. Илмий –усулий мақолалар тўплами. – Бухоро, 2010. Б.44.